



## TIL TIZIMIDA KASBIY TERMINLAR: MILLAT TILI VA MADANIYATI MUNOSABATI

**Raxmatullayev Anasxon Xamidullo o'g'li**

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671346>

**Annotatsiya.** Maqolada pichoqchilik kasb-hunar leksikasidagi terminlar, ularning lingvomadaniy va lingvoareal lisoniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** til va madaniyat, milliy til, adabiy til, kasb-hunar leksikasi, dialektal areallar, pichoq va o'zbek pichoqchilik terminlari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются термины профессиональной лексики ножеделия, их лингвокультурные и лингвоареальные языковые характеристики.

**Ключевые слова:** язык и культура, национальный язык, литературный язык, профессиональная лексика, диалектные ареалы, нож и узбекские термины ножеделия.

**Annotation.** The article examines the terms of professional vocabulary of knifemaking, their linguacultural and linguaareal language characteristics.

**Key words:** language and culture, national language, literary language, professional vocabulary, dialect areas, knife and Uzbek terms of knifemaking.

Jahon tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxs va uning o'ziga xos milliy va ma'naviy olami, turmush tarzi bilan bog'liq ravishda o'rganishga alohida ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Til tadqiqiga shu xildagi yondashuvlar natijasida XX asr o'rtalarida tilshunoslikning tadqiq yo'nalishlari kengayib, etnolingvistik, lingvokulturologiya, antropotsentrik tahlil kabi tilshunoslikning yangi sohaları maydonga keldi va tilning inson olami bilan bog'liq bo'lgan yangi jihatlarini ochib berish imkoniyatlari yaratildi. Natijada til va shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, kundalik hayoti davomida shakllangan an'anaviy madaniyati, ma'naviy olamini uzviy aloqadorlikda o'rganish tilshunoslikdagi muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida til vositalariga har bir xalqning urf-odatları va an'alarini aks ettiruvchi, milliy o'zligini anglatuvchi, ma'naviyatini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Ma'lumki, har bir milliy tilning o'ziga xos takrorlanmas ma'no va mazmunga ega bo'lgan lug'aviy birliklari mavjud bo'lib, uni xalq madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, o'ziga xos tafakkur tarzi va milliy-tarixiy an'analari bilan bog'liq ravishda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi va mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.





O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analari va ma'naviy olami, kasb-hunari bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Har bir xalq umumiy belgilarga ega bo'lgandek, o'ziga xos jihatlari ham mavjud bo'lib, bunday o'ziga xosliklar muayyan xalqning urf-odatlarini hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda o'zbek terminologiyasi har tomonlama shahdam qadamlar bilan taraqqiy etmoqda. Ilm, fan va texnika, siyosat, iqtisodiyot va madaniy hayotga doir asosiy tushunchalar mutanosib terminologiya tizimi bilan ta'minlangan. Mustaqillik yillari mamlakatda turfa ikki tilli, ko'p tilli hamda izohli lug'atlar dunyo yuzini ko'rdi. Ayni paytda turli sohaga oid terminologik lug'atlar tuzish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda, terminologiyaga oid o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyot nashrdan chiqmoqda. O'zbek terminologiyasining yanada rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining o'rni salmoqli bo'lmoqda. Hozirgi o'zbek adabiy tili muayyan terminologik tizimi boyishi, to'ldirilishi va takomillashishining bosh manbasi, boshqa tillarda kechayotganidek, shubhasiz, o'z lug'at boyligi ekanligi ayni haqiqat. O'zbek terminologiyasining o'z boyligi va imkoniyatlari hisobiga taraqqiy etishi ikki yo'l bilan voqelanadi: a) tilda mavjud, tayyor so'zlardan yangi narsa-predmet va tushunchalarni ifodalashda foydalanish; b) o'zbek adabiy tili so'z yasash imkoniyatlari ishtirokida yangi terminlar yaratish. Yangi terminlarni ro'yobga keltirishda so'z yasashning morfologik, semantik va sintaktik usullaridan unumli istifoda etiladi. Terminlar yaratishda qalqalash usulining ham sezilarli o'rni bor. O'zbek tili terminologiyasining ulkan ulushini ruscha-baynalmilal fond asosida yuzaga chiqqan nomlar tashkil etadi. Boshqa noturkiy tillardan o'zlashgan terminlar o'zbek xalqi faoliyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy, ma'naviy jabhalarini qamrab olganligi bilan xarakterlidir.

Sobiq sho'rolar hukmronligi davrida o'zbek tili lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishida alohida rolga ega bo'lgan ko'pdan-ko'p ko'hna so'zlar asossiz ravishda eskirgan leksik birliklar kategoriyasi, ya'ni arxaizmlar sirasiga kiritilgan edi. Ayni nohaqlikni o'nglash, tarixiy haqiqatni tiklash muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan edi. O'zbek tili terminologiyasi tizimida muayyan tushunchalarning muqobili bo'lmaganligi bois ularni bitta so'z bilan ifodalashning imkoniyati cheklangan.

Kasb-hunar leksikasi ma'lum etnosning etnografik jihatdan o'ziga xosligini belgilovchi muhim tomoni bo'lib, ularning til vositalari orqali ifodalanishi





tilshunoslik uchun ham etnografiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o'zining etnografik leksikasiga ega bo'lib, ularni to'plash, lingvistik jihatdan tadqiq qilib, til vositasi sifatida avloddan avlodga etkazish ko'pgina lingvistik muammolarni echilishi uchun imkon yaratadi.

Madaniyat inson ichki va tashqi olamining, fikrlashi va o'z fikr-mulohazalarini boshqalarga etkazish tarzining ifodachisidir. Qadim-qadimdan kishilarning kimligi uning odob axloqi va nutqiy madaniyligi bilan belgilangan. Madaniyat ko'p ma'noli tushuncha.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da uning besh xil ma'noda qo'llanilishi berilgan . Biroq, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatlilik ma'nolaridagi madaniyat insonning nutqiy faoliyati natijasida yuzaga chiqadi. Shunday ekan, madaniyat til bilan bog'liq va bu holat tilshunoslikda e'tirof etilib, til va madaniyatning tutashgan nuqtasida lingvomadaniyatshunoslik – lingvokulturologiya fani maydonga keldi.

Lingvokulturologiya uchun taraqqiyotga nisbatan madaniyatni o'rganish muhimroq sanaladi, chunki taraqqiyot moddiy, madaniyat esa ramziydir. Mif, urf-odatlar, marosimlar madaniyatga xos, ular xalqning turmushi va marosimlari shaklida til birliklari va ifodalarida aks etadi. Shu sababli, ulardagi til birliklari lingvokulturologiyaning obekti sirasiga kiradi. XX asr boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi etakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko'plab lingvistik tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, “lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi” . Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır” .

G.Slishkinning fikriga ko'ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan bo'lib, uning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi” .

N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko'pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi “aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq





madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo’lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o’zbek madaniyati)” demakdir.

Shunday bo’lgach, nutq madaniyatining o’rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o’rganish ob’ekti tamoman boshqadir” .

Til madaniyatning eng muhim ko’rsatkichlaridan biridir, chunki insonning dunyoqarashi, madaniyati, ma’naviyati til orqali shakllanadi va ifoda etiladi. Shu bilan birga, til nafaqat insonlar orasidagi aloqa vositasi, balki insonning hayotiy tajribasini belgilaydigan inson shakllanadigan va yashaydigan muhitdir. Hatto aytish mumkinki, odam go’yo til ichida yashaydi va doimo uning ta’sirini boshidan kechiradi .

Til o’zida insonning o’ziga xos dunyoqarashi va madaniyatini aks ettiradi. Uning eng muhim vazifasi shundaki, u madaniyatni saqlab qoladi va uni avloddan avlodga etkazib beradi. Shuning uchun ham til shaxsiyat, milliy fe’l-atvor, xalq, millat shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Til va madaniyatning o’zaro aloqasi, ularning bir-biriga ta’siri masalasi bir qancha mutaxassislarning: madaniyatshunoslar, tilshunoslar, faylasuflarning tadqiq doirasiga kiradi. Shunga ko’ra, aytishimiz mumkinki, lingvokulturologiya anchayin murakkab va ko’p qirrali sohadir.

Bir asrdan ko’proq vaqt davomida til va madaniyat o’rtasidagi munosabatlar muammosi ko’plab tadqiqotchi va olimlarning fikrini band etib kelgan bo’lsa-da, hozirgi kungacha bu masala munozarali bo’lib qolmoqda.

Tilni madaniyat orqali, madaniyatni til orqali aniqlashga urinishlar ikki tomonlama o’zaro bog’liqlik va o’zaro ta’sir munosabatlari to’g’risida guvohlik beradi: til madaniyatdan tashqarida bo’lmaydi, madaniyat tilsiz mavjud emas.

Til madaniyat bilan bog’liq ravishda o’sib boradi, rivojlanadi va uni ifodalaydi, u xalqning o’ziga xosligini, milliy madaniyatini, har bir xalqning o’ziga xos milliy dunyoqarashini o’zida mujassam etadi. Misol tariqasida biz ikki taniqli olim, Amerika va Evropa etnolingvistika maktablari asoschilarining so’zlarini keltirishimiz mumkin.

Ushbu yondashuvning eng ko’zga ko’ringan vakili V. Gumboldt bo’lib, uning asosiy fikrlari quyidagicha umumlashtirilgan:

- 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda mujassamlangan;
- 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri dunyodagi maxsus tasavvur orqali tilda ifodalanadi; til har bir millat uchun o’ziga xos ichki shaklga ega;





3) tilning ichki shakli (formasi) “milliy ruh”, u xalqning madaniyati ifodasidir;

4) til – bu inson va uning atrofidagi dunyo o‘rtasidagi aloqa vositasi . V.Gumboldtning ushbu yondashuvi uning boshqa bir izdoshi A.A.Potebniyaning asarlarida ham o‘ziga xos talqin qilingan.

Til, shuningdek, madaniyatning mahsuloti yoki qismi (ajdodlardan meros bo‘lib qolgan), madaniyatning sharti sifatida qaraladi (u orqali madaniyat assimilyatsiya qilinadi). Til madaniyatning ajralmas qismi va uning vositasi bo‘lib, ayni paytda milliy mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi . Tilni madaniyat orqali, madaniyatni til orqali aniqlashga urinishlar ikki tomonlama o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta‘sir munosabatlari to‘g‘risida guvohlik beradi: til madaniyatdan tashqarida bo‘lmaydi, madaniyat tilsiz mavjud bo‘lmaydi. Ular (til va madaniyat) o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Til madaniyatga kirib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalaydi, u xalqning o‘ziga xosligini, milliy madaniyatini, dunyoga milliy qarashini o‘zida mujassam etadi. Tilning o‘ziga xosligini madaniyat, mentalitet, “xalq ruhi” yaratadi . Tilshunos olimlar muayyan etnik guruh vakillarining madaniy va lingvistik birligini o‘zaro aloqadorligini ta‘kidlab, “madaniyatning o‘ziga xos tili”, “til – madaniyatning tashuvchisi” degan fikrlarni ta‘kidlaydilar va shu bilan etnik guruhning ushbu eng muhim ko‘rsatkichlarini birlashtiradilar. Shuningdek, til shaxslararo aloqa sub‘ekti sifatida madaniyatning ham birligi ekanligini aytib o‘tadilar . Madaniyat insonga biologik jihatdan tegishli bo‘lmagan va kishilarning hayot faoliyati natijasida yaratiladigan ko‘rinishidir . Shunga ko‘ra har bir xalqning urf-odatlarini, yashash tarzi bilan bog‘liq madaniyati bo‘ladi va u birinchi navbatda tilda aks etadi. Til va madaniyatning bu xildagi o‘zaro bog‘liqligi ularning har ikkalasini ham tabiiy hodisa ekanligi bilan belgilanadi. Madaniyat ham til singari qadimiy va har bir etnosning o‘ziga xos etnomadaniyatini vujudga keltiradi. Etnomadaniyat esa ma‘lum etnosga xos xususiyatlarni saqlab qolish maqsadiga o‘zlashtirilgan ko‘rinishlar majmuidir .

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanadi. O‘zbek tili terminologik tizimlarining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rolni o‘ynaydi. Chunki hayotda ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar, fan va texnika hamda madaniyatning rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etadi.

Termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo‘lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, har bir





fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining «qat'iy ilmiy terminologiya»ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi.

Atamashunoslik qo'mitasi tomonidan nashr etilgan 30 dan ortiq kichik hajmli yoki Atamashunoslik qo'mitasining turli bo'limlarida muhokama qilinib tasdiqlangan va nashr etilgan Har xil hajmli 20 dan ortiq terminologik lug'atlar yaratishda yuqoridagidek bosqichlarga to'liq rioya qilinmaganligi bois ularda ozmi-ko'pmi nomuvofiq (dublet, polisemantik noaniq) terminlar uchraydi.

O'zbek tilida turli sohalar bo'yicha ko'pgina ilmiy muassasa, oliy o'quv yurtlari, nashriyotlarda, shuningdek, ayrim nomenklatura (nomenlar) va uning xususiyatlari haqida tshabbuskorlar tomonidan terminologik lug'atlar tuzilayotgani, ammo bu lug'atlar o'z bosqichlarida ishga mas'ul bo'lgan ilmiy xodimlar, olim va yuqori lavozimli davlat va boshqaruv vakillari tayinlangan va nazoratga olingan taqdirdagina o'zbek terminologiyasini tartibga solishish mumkinbo'la oladi.

O'zbek tili kasb-hunar leksikasi uchun Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari bilan bir qatorda o'zbek xalqining zabardast tilshunos olimi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filollogiya fanlari doktori, professor Sobirjon Ibrohimovning "Farg'ona shevalarining kasb hunar leksikasi" o'zbek tili kasb-hunarga oid so'zlar jamlangan leksik qatlamni o'rganish uchun tayanch manba manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2006. – B.521. 93
2. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: 2015. – B.31.
3. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. – M.:1982. – S. 20-25.
4. Maslova V.A. Lingiokulturologiya. – M.: Akademiya, 2001.
5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – B. 10 94.

